

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**IKRAMOV SAYFULLO TURGUNOVICH**

**MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNING YOSHLARDA IJTIMOIIY  
FIKRNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI**

**17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik**

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BOYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Ikramov Sayfullo Turgunovich**

Madaniy-ommaviy tadbirlarning yoshlarda ijtimoiy fikrni  
shakllantirishlagi o‘rni..... 3

**Икрамов Сайфулло Тургунович**

Роль культурно-массовых мероприятий в формировании  
общественного мнения среди молодежи ..... 21

**Ikramov Sayfullo Turgunovich**

The role of cultural events in shaping public opinion among young  
people..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI**

**IKRAMOV SAYFULLO TURGUNOVICH**

**MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNING YOSHLARDA IJTIMOIIY  
FIKRNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI**

**17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik**

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BOYICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/San246 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.dsmi.uz](http://www.dsmi.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

Alimasov Viktor Aleksandrovich  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

Mavrulov Abdusalil Abdulkayevich  
tarix fanlari doktori, professor

Qobilova Feruza Nasrulloevna  
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.08/28.08.2020.San.121.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 28-avgust soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15; e-mail: [uzdsmi@madaniyat.uz](mailto:uzdsmi@madaniyat.uz)).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (31-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 11-avgustdagi 15-raqamli reyestr bayonnomasi).



*M.T. Tulyaxodjayeva*  
M.T. Tulyaxodjayeva  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

*J.A. Mamatqosimov*  
J.A. Mamatqosimov  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), professor

*A.A. Umarov*  
A.A. Umarov  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, sotsiologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar va keng integratsiya jarayonlari kishilar, ayniqsa, yoshlar ijtimoiy fikri va ongiga ta'sir etib, ularni yanada mobil, dunyo voqealaridan xabardor va kreativ yashashga undamoqda. Shuningdek, ularda kosmopolitizm, g'arb ommaviy madaniyatiga moyillik, etnomadaniy an'analarga nigilistik munosabatni shakllantirmoqda. Ushbu ziddiyatli ta'sirini to'g'ri anglash, undan obyektiv xulosalar chiqarib, yoshlar ijtimoiy fikrida, ongida milliy taraqqiyot uchun hayotiy maqsadni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon madaniyatshunoslik ilmda yoshlarning ijtimoiy fikrini o'rganish, sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish, madaniy-ommaviy tadbirlar orqali insonlar tafakkurini o'stirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Ilmiy-tadqiqotlarda BMT, YUNISEF, YUNESKO qabul qilgan dasturlarda yoshlar muammosiga muhim e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda dunyo aholisining 17 % ini yoshlar tashkil etishi, 2050-yillarga borib, u ikki barobarga ko'payishi taxmin qilinib, yoshlarga ta'lim berish, ijtimoiy fikrlari shakllangan mutaxassislarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalari hisoblanmoqda.

Yangi O'zbekiston yoshlarining etnomadaniy, differensial va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash hamda madaniy-ommaviy tadbirlarning badiiy-ekzistensial, psixologik va sotsiopedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali yoshlardagi maksimalizm, vatanparvarlik, fidoyilik va ekstravetlikni jamiyat taraqqiyoti talablari bilan uyg'unlashtirish muhim masalalardan hisoblanmoqda. "O'zbek milliy san'atini jahon sahnalarida keng targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish" maqsadini amalga oshirishda "Davlat konsert-tomosha muassasalari tomonidan namoyish etiladigan madaniy-ommaviy tadbirlar va festivallarga o'n million nafar tomoshabinlarni jalb etish choralari ko'rish"<sup>1</sup> vazifasi qo'yilmoqda. Mazkur islohot o'laroq madaniy-ommaviy tadbirlar orqali yoshlarda ijtimoiy fikrni shakllantirish dolzarb masalalar hisoblanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasini jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-37-son Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.02.2024-y., 06/24/37/0146-son.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Yoshlar tarbiyasi va ularda ijtimoiy fikrni, faollikni va yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish mudom dolzarb bo‘lib kelgan. Yoshlar tarbiyasi, ularda ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish haqida jahon faylasuflaridan Konfutsiy, Lao Szi, Budda, Suqrot, Fales, Platon va Aristoteldan tortib, to neofreydist, bixeorovist va ekzistensialistlargacha turli qarashlarni, fikrlarni bildirishgan. Insoniyat madaniyati tarixi – yoshlar tarbiyasi muammolari tarixidir. Shuning uchun muammoga oid qarashlarni, fikrlarni har bir davr va ijodkor merosidan topish mumkin.

Madaniy-ommaviy tadbirlarning yoshlar ijtimoiy fikriga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarni uch yo‘nalishga guruhlash mumkin. Birinchi guruhga, muammoni falsafiy-sotsiologik va ilmiy-metodologik jihatlarini o‘rganishga oid izlanishlar kiradi. O‘zbekistonlik olimlardan falsafa fanlari doktorlari, professorlar V.Alimasov, E.Bobomuradov, A.Ochildiyev, S.Shermuhamedov, Z.Yusupov J.Yaxshilikov<sup>2</sup> kabilarning ilmiy ishlari bunga misol bo‘ladi.

Xorijlik olimlardan S.Ikonnikova M.Kagan, I.Kant, L.Kogan<sup>3</sup> ayni muammoni tadqiq etishgan. Mazkur tadqiqotlarda yoshlar va madaniy jarayonlarning ayrim falsafiy-metodologik masalalari ochib berilgan. Ulardagi metodologik ahamiyatga ega xulosalar va tavsiyalar biz uchun ham muhimdir. Ikkinchi guruhga muammoning ayrim ijtimoiy-pedagogik va psixologik jihatlarini o‘rgangan tadqiqochilarning ilmiy izlanishlari kiradi. K.Abulxanova-Slavskaya, A.Badalyev, A.Leontyev, A.Maslou, K.Mengeym, S.Rubinshteyn, A.Freyd, Z.Freyd, K.Yung<sup>4</sup> kabilarning ilmiy asarlari ham ushbu guruhga mansub. Uchinchi guruhga muammoni madaniyatshunoslik, san’atshunoslik, madaniy-ommaviy tadbirlar rejissurasi nuqtayi nazaridan tadqiq etgan, mavzuga bevosita taalluqli ilmiy izlanishlar kiradi. Ularga, o‘zbek olimlaridan M.Qodirov, A.Umarov, A.Mavrulov, U.Qoraboyev, B.Sayfullayev, G‘.Soatov,

---

<sup>2</sup> Alimasov V. Madaniyat falsafasi. – Toshkent: Donishmand ziyo, 2023. – 112 b.; Bobomuradov E. O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari / “Zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmaalari transformatsiyasi” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari – Toshkent, 2024. – B. 56-62.; Ochildiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. – Toshkent: O‘zbekiston milliy faylasuflar jamiyati, 1999. – 64 b.; Shermuxammedov S., Yusupov Z. O‘zbekiston madaniyatida milliylik va baynalmilallik – Namangan, 2020. – 160 b.; Yaxshilikov J. Milliy g‘oya – taraqqiyot strategiyasi – Toshkent: Fan, 2017. – 123 b.

<sup>3</sup> Иконникова С.Н. Культурология. – Санкт-Петербург: СПАК, 1998. – 204 с.; Коган М.С. Философия культуры. – Санкт-Петербург: Петрополис, 1996. – 415 с.; Кант И. Сочинения в шести томах. Том 4. Част 1. – Москва: Мысль, 1974. – 234 с.; Коган Л.Н. Культурная деятельность: опыт социологического исследования. – Новосибирск: Наука, 1983. – 188 с.

<sup>4</sup> Абулханова-Славская К.С. Деятельность. Общение. Сознание. – Ленинград: ЛГУ, 1982. – 224 с.; Бадалев А.А. Понимание человека человеком. – Москва: Педагогика, 1986. – 202 с.; Леонтев Л.Н. Человеческая деятельность и общение. – Санкт-Петербург, Питер, 2009. – 216 с.; Маслоу А. Пределы психики человека. – Москва: АСТ, 2002. – 284 с.; Менгейм К. Диагноз нашего времени – Москва: Психея, 2002. – 184 с.; Рубинштейн С. Бытие и сознание. О месте психического во всеобщей взаимосвязи явлений материального мира // АН СССР, Ин-т филос. – Москва: Изд-во АН СССР, 1957. – 328 с.; Фрейд А. Психология Я и защитные механизмы – Санкт-Петербург: Питер, 2018. – 284 с.; Фрейд З. Психология бессознательного. – Тбилиси, Мсири, 1998. – 302 с.; Юнг К. Психологические типы. – Москва: Университетская книга. АСТ, 1994. – 716 с.

M.Umarov, F.Ahmedov, J.Mamatqosimov<sup>5</sup> kabilarning tadqiqotlari kiradi. Ushbu tadqiqotlarda bayramlar, tomoshalar, xalq sayllari, yubileylar, uy to‘ylari, mahalla tantanalarini uyushtirish muammolari, metodikasi ochib beriladi.

Jahon olimlaridan esa D.Genkin, A.Mazayev, S.Stanislavskiy, G.Tovstonogov, A.Chechetin, M.Sharoyev<sup>6</sup> tadqiqotlarini misol sifatida keltirish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, madaniy-ommaviy tadbirlarning yoshlar ijtimoiy fikrini shakllantirishga ta’siri muammolariga bag‘ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlar juda kam, ularning borlari ham yoshlarning etnomadaniy, differensial va ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganishdan yiroq. Tadqiqotimiz ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Yangi O‘zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasi va madaniyat, san’at xodimlari tayyorlash muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Yangi O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy fikrini shakllantirishga madaniy-ommaviy tadbirlarning ta’sirini madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yoshlarning etnomadaniy, differensial va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash orqali ularda ijtimoiy fikrni shakllantirishning badiiy-ekzistensial jihatlarini ochib berish;

madaniy ommaviy tadbirlarning funksional xususiyatlarini aniqlash orqali ularning yoshlar ijtimoiy fikrida in’ikosini yoritish;

madaniy-ommaviy tadbirlarning badiiy-ekzistensial, psixologik va sotsiopedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali yoshlardagi maksimalizm, vatanparvarlik, fidoiylilik va ekstravetlikni jamiyat taraqqiyoti talablari bilan uyg‘unlashtirish mexanizmlarini topish;

Yangi O‘zbekiston yoshlarida innovatsion izlanishlarga, kreativ va badiiy - ekzistensial ijodga qiziqish uyg‘otish, ijtimoiy fikri va ongida sotsiologumanistik qarashlarni shakllantirishda madaniy-ommaviy tadbirlardan samarali foydalanish mezonlarni ishlab chiqishi va amaliyotga joriy etish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o‘zbek xalqi madaniy-ommaviy tadbirlari hamda milliy bayramlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** milliy madaniy-ommaviy tadbirlarning estetik xususiyati hamda evolyutsiyasi tashkil etadi.

<sup>5</sup> Qodirov M. O‘zbek an’anaviy teatri. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. – 468 b.; Umarov A. va boshq. Madaniy dam olishni tashkil etishning ilmiy asoslari. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – 184 b.; Mavkulov A. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 22 b.; Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 224 b.; Sayfullayev B. Tomosha san’ati tarixi va nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 152 b.; Soatov G‘. Xalq bayramlarining etnofolklor xususiyatlari. – Namangan, 1992. – 62 b.; Umarov M. Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. – 324 b.; Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – 424 b.; Mamatqosimov J.A. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 208 b.

<sup>6</sup> Генкин Д.М. Массовые праздники. – Москва: Просвещение, 1972. 266 с.; Мазаев А. Праздник как социально-художественное явление. – Москва: Наука, 1978. – 392 с.; Станиславский К. Работа актёра над собой. – Москва: – ООО «Издательство АСТ», 2017. – 432 с.; Товстоногов Г. Зеркало сцены. – Ленинград: Искусство, 1980. – 303 с.; Чечетин А. Основы драматургии театрализованных представлений. – Москва: Искусства, 1981. – 132 с.; Шароев М. Режиссура эстрады и массовых представлений. Учебник. – Москва: ГИТИС, 1992. – 67 с.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda falsafaning kompleks yondashish, ratsionallik, obyektivlik, tizimli funksional yondashuv, analiz va sintez, sotsiologiyaning ommaviy so'rovnoma, ekspress savol-javob, intervyu, ekspertlar savol-javobi, kontent analiz, sotsiodinamik tahlil, modellashtirish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yoshlarning etnomadaniy, differensial va ijtimoiy xususiyatlarida ijtimoiy fikrni ulardagi dunyoqarash, ong, bilim, intellekt, jismoniy va ruhiy imkoniyatlar orqali shakllantirish, ular ongida go'zallikni his qilish, ya'ni san'at asarlarining gedonistik falsafasini anglash jarayonining badiiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy va ekzistensial jihatlarini aniqlangan;

madaniy-ommaviy tadbirlarni ijtimoiy-g'oyaviy, pedagogik, kreativ, relaksatsiya, ma'rifiy, xronometrik funksiyalari yoshlar ijtimoiy fikrini ijobiy tomonga o'zgartirishining ilmiy-nazariy qonuniyatlari dalillangan;

yoshlarda innovatsion izlanishlarga, kreativ va badiiy-ekzistensial ijodga qiziqish uyg'otish, ijtimoiy fikri va ongida sotsiogumanistik qarashlarni shakllantirishda madaniy-ommaviy tadbirlardan maqsadga yo'naltirilgan holda samarali foydalanishning ratsional, obektiv mezonlari hamda tadbirlarning transformatsion xususiyatlari va estetik evolyusiyasi nazariy, ilmiy va metodologik jihatdan asoslangan;

Yangi O'zbekistondagi madaniy-ommaviy tadbirlarni o'tkazishda paradigmalar o'zgarishlar ro'y bergani, natijada milliy madaniyatni tiklash va rivojlantirish, millatlararo totuvlik va internatsional birdamlikni mustahkamlash, tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish, diniy-ma'naviy qadriyatlar va etnomadaniy an'analarni tiklash, yoshlarda ilg'or texnologik va ma'rifiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi madaniy-ommaviy tadbirlar konsepsiyasi ishlab chiqilgani isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

respublika miqyosida madaniyat va san'at sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar uchun "San'at va madaniyat sohasini zamonaviy boshqaruv usullari" nomli uslubiy qo'llanma madaniyat va san'at menejmenti, marketing, madaniy-ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalari, teatrlar, madaniyat markazlari, konsert-tomosha muassasalari, muzeylar faoliyatida menejment va marketing masalalari yuzasidan tavsiyalar berilgan;

san'at sohasida prodyuserlik ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mutaxassislikka yo'naltirilgan ta'limni yanada mukammal o'qitish maqsadida "Prodyuserlik faoliyatida marketing, jamoatchilik aloqalari va reklama" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan;

madaniy-ommaviy tadbirlar, ularning ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi o'rni va yoshlarga ta'siri, shuningdek, mazkur tadbirlarda yoshlarning ishtiroki bo'yicha "O'zbekiston tarixi" telekanalida chiqishlar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy manbalar, ishonchli dalillarga tayanilganligi, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalar to'plamlari, OAK ro'yxatida bo'lgan maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy



etilganligi, olingan natijalarning tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, madaniy-ommaviy tadbirlarni klassifikatsiyalash, ularning empirik asoslarini va ijtimoiy-amaliy ahamiyatini to'g'ri anglash, har bir tadbirni jamiyat taraqqiyoti talablari bilan bog'lash ko'nikmasini shakllantirish ilmiy-nazariy kontsepsiya yaratishga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati madaniy-ommaviy tadbirni ma'lum bir badiiy-ekzistensial ahamiyatga ega yaxlit asar sifatida mezonlashni o'rgatuvchi hamda san'atshunos kadrlarni tayyorlash uchun g'oyatda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Madaniy-ommaviy tadbirlarning yoshlarda ijtimoiy fikrni shakllanishidagi o'rni tadqiqoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yoshlarning etnomadaniy, differensial va ijtimoiy xususiyatlarida ijtimoiy fikrni ulardagi dunyoqarash, ong, bilim, intellekt, jismoniy va ruhiy imkoniyatlar orqali shakllantirish, ular ongida go'zallikni his qilish, ya'ni san'at asarlarining gedonistik falsafasini anglash jarayonining badiiy-estetik, ma'naviy-ma'rifiy va ekzistensial jihatlari aniqlashga oid xulosa va takliflardan respublikamizda o'tkazilib kelinayotgan madaniy-ommaviy tadbirlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 2024-yil 3-iyundagi 02-11-17-1835-son ma'lumotnomasi). Natijada, madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishning metodik asoslari takomillashtirilgan;

madaniy-ommaviy tadbirlarni ijtimoiy-g'oyaviy, pedagogik, kreativ, relaksatsiya, ma'rifiy, xronometrik funksiyalari yoshlar ijtimoiy fikrini ijobiy tomonga o'zgartirishining ilmiy-nazariy qonuniyatlari dalillanganligiga oid xulosa va takliflar "Prodyuserlik faoliyatida marketing, jamoatchilik aloqalari va reklama" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 24-sentyabrda 02/01-01-79-son ma'lumotnomasi). Natijada, madaniy tadbirlarni tashkil etishda prodyuserlik faoliyati sir-asrorlarini o'rgatish, uni tahlil qilish va muammolarni to'g'ri echa bilish yo'llari haqida tushuncha berishga xizmat qilgan;

yoshlarda innovatsion izlanishlarga, kreativ va badiiy-ekzistensial ijodga qiziqish uyg'otish, ijtimoiy fikri va ongida sotsiologumanistik qarashlarni shakllantirishda madaniy-ommaviy tadbirlardan maqsadga yo'naltirilgan holda samarali foydalanishning ratsional, obektiv mezonlari hamda tadbirlarning transformatsion xususiyatlari va estetik evolyusiyasi nazariy, ilmiy va metodologik jihatdan asoslangan xulosa va takliflardan "O'zbekiston tarixi" telekanali dasturlarida foydalanilgan (O'zMTMKning 2025-yil 14-iyuldagi 01-33/525-son ma'lumotnomasi). Natijada madaniy-ommaviy tadbirlar, ularning ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi o'rni va yoshlarga ta'siri, shuningdek, mazkur tadbirlarda yoshlarning ishtiroki ko'lamini oshishiga erishilgan;

Yangi O'zbekistondagi madaniy-ommaviy tadbirlarni o'tkazishda paradigmal o'zgarishlar ro'y bergani, natijada milliy madaniyatni tiklash va rivojlantirish,

millatlararo totuvlik va internatsional birdamlikni mustahkamlash, tarixiy ong va milliy o'zlikni shakllantirish, diniy-ma'naviy qadriyatlar va etnomadaniy an'analarni tiklash, yoshlarda ilg'or texnologik va ma'rifiy qarashlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi madaniy-ommaviy tadbirlar konsepsiyasi ishlab chiqilgani isbotlanganligiga oid xulosa va takliflar "Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati", "Ommaviy bayramlar menejmenti" va "Madaniy tadbirlarni badiiy bezash" fanlarining o'quv dasturlari mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2024-yil 24-sentyabrdagi 02/01-01-79-son ma'lumotnomasi). Natijada, madaniy tadbirlarni tashkil etishning metodik ta'minoti takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilingani.** Dissertatsiya bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, shundan xorijiy jurnallarda 2 ta maqolalar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 121 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlari, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Madaniy-ommaviy tadbirlarni ilmiy o'rganishning nazariy-metodologik masalalari**" deb nomlanadi. Unda madaniy-ommaviy tadbirlarni o'rganishdagi ilmiy-metodologik muammolari falsafiy-estetik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Shu paytgacha madaniy-ommaviy tadbirlarga empirik yondashuv ustuvorlik qilib kelgan, ularga asosan amaliy tajriba, tashkil etiladigan tomosha, bayram, xatti-harakatlar sifatida qaralgan. Shuning uchun ham maxsus predmet ommaviy tadbirlar rejissurasi, hatto tarixi ham madaniy-ommaviy tadbirlarga empirik izlanishlar obyekti sifatida yondashilgan.

Dissertatsiyada madaniy-ommaviy tadbirlarni avvalo, ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qarashning zarurligi, shu asosda empirik tajribalarni umumlashtirish ehtiyoji mavjudligi ta'kidlangan. Tadbirlarni klassifikatsiyalash bilan bog'liq ilmiy masalalar muhokama qilingan.

"Madaniy tadbirlarning eng afzal tomoni shundaki, ular madaniy muassasalarning keng qamrovli faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi. Jumladan, ularda ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishi, havaskorlik ijodi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qilish kabi faoliyatlar uyg'unlashib ketadi. Tadbirlarning har bir shakliga, masalan, ommaviy bayramlar, an'anaviy marosimlar teatrlashtirilganda ularda

ma'rifiy xarakterdagi mazmunni, havaskorlik ijodining natijalarini, badiiy-estetik zavqlanish va madaniy hordiq chiqarish uchun yaratilgan qulayliklarni yaqqol sezish mumkin. Shu sababli tadbir madaniy-ma'rifiy muassasalardagi barcha faoliyatning umumlashtirilgan ko'zgusidir"<sup>7</sup>.

Ilmiy tadqiqotlarga qo'yiladigan bosh talablardan biri obyektни to'g'ri tanlash, mavzuda ushbu obyektning real holatini, xususiyatlarini aks ettirishdir. Fransuz faylasufi, ratsionalizm metodining asoschisi Rene Dekartning ta'kidlashicha, bilish obyektini insonning bilish imkoniga muvofiq kelishi darkor. Inson eng murakkab narsalarni bilishi mumkin. Buning uchun u oddiy narsalarni bilishdan boshlashi zarur. Oddiydan murakkabga borish, murakkabni tizimlarga ajratish ratsional bilishning kafolati sifatida ilmiy tadqiqotlarda qabul qilingan<sup>8</sup>. Ratsionalizmning empirizm bilan bog'liqligi har bir hayotiy voqelikni aql-u idrok nuqtayi nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Madaniy-ommaviy tadbirlarning empirik-amaliy xususiyati ularga ratsional metodni tatbiq etishga undaydi. Bu o'rinda avvalo, falsafiy bilish metodlari bo'lgan kompleks va tizimli-funksional yondashuvni eslash o'rinlidir. Kompleks yondashuv deganda tadqiqot obyektini ichki va tashqi aloqalarini yaxlit voqelik sifatida anglash, borliq bilan uzviyligini anglatuvchi jihatlaridan kelib chiqish nazarda tutiladi. U tadqiqot obyektini butun, umum bilan uzviy bog'liqligini, natijada obyektidagi ichki o'zgarishlar bilan tashqi deterministik bog'liqliklar umumiy qonunlarga, tabiat va jamiyat o'rtasidagi integratsiyaga, dialektikaga borib taqalishini anglashga yetaklaydi<sup>9</sup>. Agar kompleks yondashuvni madaniy-ommaviy tadbirlarga tatbiq etsak, quyidagi tasavvur yuzaga keladi:

1) madaniy-ommaviy tadbirlar tabiat va jamiyat o'rtasidagi umumiylikka, butunlikka borib taqaluvchi empirik-amaliy faoliyat turidir;

2) ularni tashkil etish negizida umumga, butunga taalluqli qonunlar, ya'ni ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar va qiziqishlar yotadi;

3) ularning butun, umum bilan garmoniyada bo'lishi ijtimoiy taraqqiyot talabidir.

Madaniy-ommaviy tadbirlar yadrosini madaniyat, madaniy voqelik tashkil etadi. Substantsional mohiyatiga muvofiq madaniyat pozitiv, ong, tafakkur va turmush tarziga pozitiv ta'sir etuvchi voqelikdir<sup>10</sup>. Ammo madaniyat, eng avvalo, insoniyatni, alohida olingan shaxsni ma'naviy-ruhiy jihatdan takomillashtirishdan iborat ekanligiga ustuvor ahamiyat berilgan holda, ularni harakatga keltiruvchi omil – aql ekanini qayd etishgan<sup>11</sup>. Madaniy voqeliklarning ushbu xususiyati tadbirlarga ijtimoiy mohiyat, inson va jamiyat taraqqiyoti uchun dolzarblik, hayotiy muammolarni hal etishda ratsional-intellektual va instrumental ahamiyat baxsh etadi. Har qanday tadbir yoki sa'y-harakatlar emas, balki pozitiv mohiyatga ega, hayotiy,

<sup>7</sup> Umarov A., Qoraboyev U. Madaniy dam olishni tashkil etishning ilmiy asoslari. O'quv qo'llanma // – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – B. 17.

<sup>8</sup> Mavkulov A., Mavkulova M. Madaniyat nazariyasi. O'quv qo'llanma // – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2023. – B. 28.

<sup>9</sup> Alimasov V., Mamadaliyev Sh. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi: nazariyasi, usullari, metodlari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – B. 78.

<sup>10</sup> Кармин А.С. Основы культурологии. – Санкт-Петербург: Лан, 1997. – С. 4-5.; Савицкая М. Рационализм как метод научного познания. – Екатеринбург: ИЕГУ, 2019. – С. 96.

<sup>11</sup> Декарт Р. Сочинения в двух томах. Т.1. – Москва: Мысль, 1990. – С. 99-101.

ma'naviy, psixologik muammolarni ratsional-intellektual va instrumental hal eta oladigan choralar madaniydir.

Mana, nima uchun “madaniy-ommaviy tadbirlar” kategoriyasining yadrosini “madaniyat”, “madaniy” so‘zi tashkil etadi. “Ommaviy” degan so‘z tadbirlarning qanday obyektlarga, auditoriya va retsipyentlarga qaratilganini, ushbu obyektlarning tashqi, tashkiliy belgilarini anglatadi. Uyushganlik, bir fikrlilik, bir birini qo‘llab-quvvatlash, hissiy-emotsional hamjihatlik kabilar ommaviylik shakllanganini ko‘rsatuvchi belgilardir. “Madaniy” ham, “ommaviy” ham o‘zi o‘zi uchun (“san’at san’at uchun” degan g‘ayrihayotiy shiorni eslang) bo‘la olmaydi. Ular dialektik uyg‘unlikda, turli ijodiy faoliyat turlari va shakllarini sinkretlashtirgan tarzda yaxlit voqelikka aylanadi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarning turli fanlar uchun tadqiqot obyekti (predmeti) bo‘lgani ularning ijobiy belgisi, keng qamrovli voqelik sifatida barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarning gnoseologik maqsadi bo‘lishi mumkinligidan darak beradi. Gnoseologik maqsad subyekti tadqiqotchidir. Biroq madaniy-ommaviy tadbirlarda u obyekt (predmet) sifatida ham qaralishi mumkin. Masalan, madaniyat va san’at menejerining, tashkilotchi-rejissyorning ijodiy izlanishlari va usullari tadqiqotchi e’tiboridan chetda qololmaydi. Tadbirlar morfologiyasi va rejissurasini, g‘oyaviy ahamiyati va ekzistensial xususiyatini o‘rganmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi menejer, tashkilotchi-rejissyor tajribasini, qo‘llagan badiiy-estetik usullarini tahlil qiladi, ochib beradi. Biz uchun madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘rganuvchi maxsus fanlar (madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi, ommaviy bayramlar rejissurasi, teatr dramaturgiyasi, klub ssenariysi, ommaviy tadbirlarni badiiy bezatish, musiqa estetikasi, notqlik san’ati, sahna harakati, raqs, xor, o‘yin-tomosha san’ati) va ularning ilmiy-nazariy xulosalari, tavsiyalari muhimdir.

Madaniy-ommaviy tadbirlar substantsional asosi, shakllari, mohiyati va vazifalariga ko‘ra badiiy-estetik faoliyatning murakkab turlaridan biridir. Ulardagi sinkretiklik va ko‘pvariantlilik ularni klassifikatsiyalashni murakkablashtiradi. Shuning uchun ham madaniy-ommaviy tadbirlarni o‘rgangan tadqiqotchilar ularni klassifikatsiyalash haqida deyarli hech nima deyishmaydi yoki ularni intuitiv tarzda guruhlashtirishga, turlarga ajratishga intiladilar. Har ikki holda ham madaniy-ommaviy tadbirlar oddiy empirik kuzatish pog‘onasida qolib ketadi. Bu obyektiv borliqni, ijtimoiy hodisalarni ma’lum bir tarzda klassifikatsiya qilishni talab etadigan falsafiy-metodologik yondashuvga ziddir. Falsafiy-metodologik yondashuv murakkab ijtimoiy voqeliklarni ma’lum bir tartiblar, tizimlar asosida klassifikatsiya qilishga, shu tarzda o‘sha voqeliklar haqida to‘liq ma’lumotlar olishga undaydi<sup>12</sup>. Fan tarixi ko‘rsatadiki, obyektning ichki tizimlari va tashqi aloqalari xaotik emas, balki ma’lum bir maqsad va bir-birlariga uzviy bog‘liq tizimlardan iborat. Tizimli funksional bog‘liqlik har qanday obyekt yoki voqelikning xususiyati, mavjudligi belgisidir. Ana shu xususiyati va belgisi tufayli obyekt, voqelik yaxlitlik kasb etadi, anglanadi<sup>13</sup>. Falsafiy metodologik adabiyotlarda qayd etilishicha, klassifikatsiyalash, murakkab obyektlar va voqeliklarni tadqiqot maqsadiga yoki ularning xususiyatlari, belgilari, funksiyalari, ichki va tashqi aloqalariga muvofiq tizimlariga ajratib

<sup>12</sup> Лазурский А. и др. Классификация личностей. – Москва: Юрайт, 2019. – С. 39.

<sup>13</sup> Ракитов. А.И. Философия. Основные идеи и принципы. – Москва: Политиздат, 1990. – С. 97.

o'rganish metodidir. U gnoseologik metod sifatida, murakkab jarayonlarni qismlarga, tizim va guruhlariga ajratib o'rganishga xizmat qiladi<sup>14</sup>.

Madaniy-ommaviy tadbirlarning murakkab va sinkretik tarzdagi ijodiy faoliyat shakli ekanini e'tirof etish yetarli tasnif emas, biz shunday klassifikatsiyalash metodini tanlashimiz kerakki, u obyekt va voqeliklarning iloji boricha barcha xususiyatlari va immanent belgilarini qamrab olsin. Madaniy-ommaviy tadbirlarni:

- 1) guruh (lokal);
- 2) hududiy (sotsial);
- 3) umummilliy (etnosotsial);
- 4) mintaqaviy (kontinental);
- 5) umuminsoniy (global) shakllarda klassifikatsiyalash mumkin.

Dissertatsiyada madaniy-ommaviy tadbirlarda adabiyot, musiqa, raqs, tasviriy san'at, tomoshalar, kino, badiiy-estetik ijodning barcha turlari va shakllari sinkretlashib keladi, degan fikr bildirilgan. Aynan ushbu jihati madaniy-ommaviy tadbirlarni universal, ommabop, serzavq qiladi. Yoshlarda san'atga qiziqish o'zining ijodiy "men"ini ifoda etishga zamin tayyorlaydi. Qiziqishning sotsiologik mohiyati kishini faoliyatga, izlanishga undaganidadir. Qiziqish faoliyat va izlanishlarda obyektivlashib, ongdagi maqsadlarni ifoda etadi. Madaniy-ommaviy tadbirlar tomoshabinlar qiziqishlarini badiiy-estetik g'oyalar va kompozitsiyalar atrofida birlashtiradi, "men"dagi shaxsiy hayotiy maqsadlarni "biz" kontsepsiyasiga yaqin qiladi. Ilmiy-dunyoviy qarashlarning yoshlar hayotiga ta'siri ong fenomeni bilan shug'ullanuvchi barcha fanlar uchun fundamental ahamiyatga ega. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishning ilmiy-dunyoviy qarash, faoliyat, san'at turi bo'lishi uchun bu omilga alohida urg'u berish zarur. Yangi O'zbekiston uchun ilmiy-dunyoviy qarashlarga ega, innovatsion va kreativ fikrlaydigan yoshlar kerak. Respublikamiz rahbariyati va hukumati milliy madaniyatni, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirishga oid 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyalarni qabul qilgan. Ularda zamonaviy ilm-fanni, madaniyat va san'at sirlarini egallagan yoshlarni tarbiyalash strategik vazifalardan biri ekani ta'kidlangan<sup>15</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Madaniy-ommaviy tadbirlarning xususiy differensial funksiyalari va ijtimoiy ong fenomeni"** deb atalgan. Unda madaniy-ommaviy tadbirlarning funksiyalarini tizimli yondashish orqali ochib berilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra murakkab obyektlar, ijtimoiy voqeliklar tizimli funksional yondashuv orqali yetarli ochib berilishi mumkin<sup>16</sup>.

Bunda diqqat obyektning asosiy vazifalari va ularni bajarish jarayonlarida qo'llaniladigan imkoniyatlaridan kelib chiqishi zarur. Bu o'rinda tadqiqotchining gnoseologik maqsadi va ilmiy-nazariy potentsiali ham muhim ekanini unutib bo'lmaydi, biroq u obyektning vazifalarini aniqlashga, ochib berishga halaqit bermasligi, real voqelikni soxtalashtirishga, ziddiyatli muammolarni ilg'amaslikka

<sup>14</sup> Гройсман А. Личность, творчество, регуляция состояний. – Москва: Магистр, 1998. – С. 98.

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustdagi PQ-39-20-son "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.08.2018-y., 07/18/3920/1799-son.

<sup>16</sup> Лигостаев А.Г. Классификация как метод познания // <https://prepod.nspu.ru/>; Яшин Б.Г. Философия науки. – Москва: Директ. медиа, 2018. – 288 с.; Барле Ш. Оккультизм. Определение. Методы. Классификаций. Применение. – Москва: ЛитРес, 2022. – 346 с.

olib kelmasligi lozim. Tadqiqotchi o'zining gnoseologik maqsadini obyektning real holati va muammolari bilan uyg'unlashtirishi zarur.

Muammoga oid ilmiy va metodik adabiyotlarni hamda empirik tajribalarni o'rganishdan kelib chiqib madaniy-ommaviy tadbirlar funksiyalarini ikki, umumiy-ijtimoiy va gnoseologik maqsaddan kelib chiqadigan, xususiy-differensial funksiyalarga ajratish mumkin.

Xususiy-differensial funksiyalarini quyidagilarga ajratish mumkin:

tadbirlarga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarni o'rganish (sotsiologik funksiyasi);

ijtimoiy ongga samarali ta'sir etuvchi g'oyaviy vositalarni tanlash (ideologik funksiya);

dunyoviy-ilmiy qarashlarni shakllantiruvchi usullardan foydalanish (ma'rifiy funksiya);

axloqiy-ma'naviy fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan metodlarni qo'llash (pedagogik funksiya);

kreativ ongni shakllantirish va rivojlantirishga oid ish usullaridan foydalanish (kreativ funksiya);

dam olishni maroqli uyushtirish ko'nikmalarini shakllantirish (relaksatsiya va gedonistik funksiya);

bo'sh vaqtni ratsional tashkil etish (xronometrik funksiya).

Qiziqish va ehtiyoj psixologik voqelik, ular shaxsiy-sensitiv, hayotiy-emotsional kechinmalar va tajribalar mahsuli sifatida kishining ijtimoiy-madaniy boyliklarga munosabatlarini shakllantiradi. Shaxsning u yoki bu madaniyat o'choqlariga qatnashi (qatnamasligi), u yoki bu tadbirni yoqtirishi (yoqtirmasligi) yuqoridagi ichki omillar tufaylidir. Bu jarayonni E.Fromm "ekzistensial ehtiyoj" deb atagan<sup>17</sup>. Aslida ekzistensial bo'lmagan ehtiyoj yo'q, inson istaklari va qiziqishlari ijtimoiy borliq ta'sirida shakllanar ekan, ular mudom ma'lum bir ekzistentsiyadir. Madaniy-ommaviy tadbirlar mohiyatiga ko'ra ham, shakliga ko'ra ham, ekzistentsional, shuning uchun ular ijtimoiy talablarga javob berishi kerak.

Ideologik funksiya madaniy-ommaviy tadbirlarning davr, mafkura, g'oya bilan bog'liq vazifalarining ijrosidir. Ma'lum bir ideologik funksiyani bajarmaydigan madaniy-ommaviy tadbir yo'q. O'zining ekzistensial mohiyatiga ko'ra, tadbirlar ma'lum g'oyalar bilan sug'orilgan va ularni ifoda etadi. G'oyaviy tarbiya madaniy-ommaviy tadbirlarning yuragini tashkil etadi, ayniqsa, mantiqsizlik, axloqsizlik, kosmopolitizmni targ'ib etayotgan "ommaviy madaniyat" keng tarqalayotgani hozirgi davrda milliy manfaatlar va qadriyatlarga taalluqli tadbirlar g'oyaviy bo'lmasligi mumkin emas. Bunday tadbirlar:

milliy g'oya va mafkura;

tarixiy xotira va o'zlikni anglash;

gumanistik qarashlar va qadriyatlar;

yuksak axloqiy qarashlar;

dunyoviy qarashlar;

diniy-axloqiy meros;

---

<sup>17</sup> Фромм Э. Анатомия человеческого фатализма. – Москва: Республика, 1997. – С.13.

Ma'rifat, bilim, ijodiy izlanish kabilarga tayanadi, yoshlar ongida milliy identlikni shakllantiradi. Ideologik funksiyani tayyor dogma, siyosiy ustanovka yoki ko'rsatmaga taalluqli deb bilmaslik kerak. Unda davlat ichki siyosati va doktrinasi o'z aksini topsa-da, u badiiy-estetik vositalardan mutlaq xoli, siyosiy ustanovkani takrorlovchi, siyqa tadbir bo'lib qololmaydi.

Ma'rifat, ijtimoiy-falsafiy, madaniyatshunoslik va san'atshunoslik nuqtayi nazaridan, voqelikni keng ommaga tushunarli, unga yaqin, undagi kreativ kuchlarni harakatga chorlovchi, ro'yobga chiqaruvchi qiladi. Ma'rifiylik madaniyat va san'atning mohiyatidadir, bu esa madaniy-ommaviy tadbirlarni ham ma'rifiy hodisaga aylantiradi. Ma'rifiy funktsiya zamonaviy bilimlar va qarashlarni targ'ib etishga qaratilgan vazifadir.

Madaniyat barcha faoliyat turlariga ijtimoiy-falsafiy, tarbiyaviy va gumanistik ahamiyat baxsh etganidek, san'atga ham sotsioestetik mazmun beradi, uni inson va jamiyat muammolarini hal etishga yo'naltiradi. Madaniy-ommaviy tadbirlarning kreativ funksiyasi kishilarda ijodkor ongni shakllantirish, real voqelikka tanqidiy munosabatda bo'lish, tafakkurni faollashtirishga qaratilgan vazifasidir. Kreativ ong psixologik hodisa sifatida yoshlarni yon-atrofga anglangan, tanqidiy munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. Insonning hayotdagi o'rnini anglashi uning o'zi va ijtimoiy borliq o'rtasidagi munosabatlaridan ekzistensial mohiyat izlashi, mazkur izlanishlarning ijtimoiy-madaniy borliqqa ta'siri nimada, kimda, qanday xususiyatlarda aks etishiga bog'liqdir. Agar biz madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish haqida o'ylaydigan bo'lsak, ularning ekzistensial mohiyati masalasiga duch kelaveramiz. Bu mohiyat tadbirlarni uyushtirishda emas, balki ularning insondagi kreativ ijodkorlikni namoyon etishga yordam berishidadir.

Relaksatsiya, gedonizm, ya'ni aholi, resipiyent-buyurtmachining dam olish va hordiq chiqarishini uyushtirish madaniy-ommaviy tadbirlarning muhim funksiyalaridan biridir. Dam olish kechalari, musiqa va raqs kechalari, qiziqarli uchrashuvlar, ommaviy bayramlar, sport musobaqalari, konkurslar, hajviya kechalari kabi tadbirlar uyushtirishda milliy va umuminsoniy belgilar, tashkil etish texnologiyalari mujassamdir. Madaniy-ommaviy tadbirlarning aholi bo'sh vaqtini mazmunli uyushtirish bilan bog'liq vazifalari (xronometriya funksiyasi) madaniyatshunoslik va san'atshunoslik uchun muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Tafakkur, fikr, tasavvur, munosabat, muloqot, bilish kabi psixologik jarayonlar ongning kognitiv ifodalari sifatida inson faoliyatining barcha sotsial tizimlarida qatnashadi, natijada u (inson) ongli, ijodkor mavjudot ekanini yuqoridagi kognitiv jarayonlarda namoyon qiladi. Agar ushbu fundamental jihatdan kelib chiqsak, madaniy-ommaviy tadbirlar, insonning ijodiy faoliyati sifatida, ong tizimlariga ta'sir etishini anglaymiz. Ilmiy adabiyotlarda mazkur ong tizimlariga fikrlash, anglash, tahlil qilish, mushohada, munosabat, tafakkur, idrok, gipoteza, g'oya va nazariyalar yaratish kabi kognitiv jarayonlar kiritiladi<sup>18</sup>. Dissertatsiyada madaniy-ommaviy tadbirlarning yoshlar ongiga ta'sirini ana shu tizimlar yoki jarayonlar orqali tadqiq etish ochib berilgan.

---

<sup>18</sup> Спиркин А.С. Происхождение сознаний. – Москва: Наука, 1968. – С. 588.

Tadbirlarning ommaviy xarakteri yoshlarda ommaviy psixologiyani shakllantirishi tabiiy holdir. Shuning uchun “madaniy-ommaviy-yoshlar” dialektikasi ommaviy psixologik omillar orqali o‘rganilganda, ma’naviy-sotsial va differensial jihatdan aniqlik kasb etadi. Bu esa yoshlarda ommaviy psixologik evrilishga borib tarqaladi. Mazkur jarayonni tadqiq etgan taniqli psixolog G.Lebon shaxs va ommalashish jarayonini quyidagicha tasniflaydi:

- 1) qiziqishlari turlicha bo‘lgan shaxslarni bir joyga yig‘adi;
- 2) qiziqishlari bir bo‘lgan shaxslarni omma sifatida bir joyga to‘playdi;
- 3) kam sonli, ya’ni 5-6 kishini ham ommaga aylantirishi mumkin;
- 4) butun bir millat ommaga aylanishi mumkin<sup>19</sup>.

Agar ushbu fundamental tashkiliy-madaniy va psixologik xulosadan kelib chiqsak, madaniy-ommaviy tadbirlar tayyor modeldan emas, balki yoshlarga xos bo‘lgan sotsial va differensial jihatlaridan kelib chiqishini anglaymiz. Bu o‘rinda qiziqishlari turlicha bo‘lgan yoshlar ham tadbirlar auditoriyasi bo‘lishi mumkin. Shu paytgacha madaniyatshunoslik va madaniy-ommaviy tadbirlar metodikasida auditoriya, retsiptiyentlar qiziqishlari asosiy omil sifatida qaraladi, degan fikrlardan kelib chiqilardi. G.Lebon talqinidan keyin tadbirlar turlicha qiziqishlar ham asosiy omil bo‘lishi, turli qiziqishlarga ega yoshlar ham tadbirlar auditoriyasi bo‘lishi mumkinligini tasdiqlandi. Qiziqishlari bir bo‘lgan yoshlarni bir joyga to‘plash qiyin emas, ammo tadbirlarning potentsial auditoriyasi turli qiziqishlarga ega yoshlardir. Madaniy-tashkiliy va psixologik omil 5-6 kishini ham ommaga aylantirishi mumkin. Demak, madaniy-ommaviy tadbirlar sanoqli kishilarni ham ommaga yoki unga xos xislatlarga ega subyektlarga aylantirishi mumkin.

Ijtimoiy fikr umummilliy g‘oya bo‘lishga moyil. Aslida milliy g‘oya ijtimoiy fikr tarzida keladi, ma’lum bir ideologik konsepsiyalarga ega shaxslarning g‘oyaviy qarashlaridan ibrat bo‘ladi. Keyinchalik u milliy ahamiyat kasb etadi. Ekstravertiv tarqalgan qarash milliy g‘oyaga aylanishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy fikrning milliy g‘oyaga aylanish imkoniyatlari keng, har bir ijtimoiy fikr milliy g‘oyaning ma’lum bir qirrasini sifatida kelishi mumkin. Madaniy-ommaviy tadbirlar ijtimoiy fikrni shakllantirayotganida ushbu sotsial-psixologik evrilishni nazarda tutishi kerak.

